

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi. “Ta’lim holati va rivojlanish istiqbollari” statistik ma’lumotlari. Toshkent, 2023.
2. Prezident Farmoni: “2022–2026 yillarda yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”. 2022.
3. OECD. Education at a Glance 2022. Paris: OECD Publishing, 2022.
4. UNESCO Global Education Monitoring Report 2023.
5. Mahmudov Sh., Yo‘ldoshev R. “Pedagogik mahorat va innovatsion texnologiyalar”. Toshkent, 2021.
6. Digital India rasmiy portali. www.digitalindia.gov.in
7. UNICEF: “Education Equity Report”, 2023.
8. Koreya Ta’lim vazirligi veb sayti. www.moe.go.kr
9. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi, ta’lim bo‘yicha hisobotlar.
10. Raqamli iqtisodiyot va ta’lim jurnali, 2023, 4-son.
11. Asia Development Bank: “Equitable Education Strategy”, 2021.
12. “Pedagogika va psixologiya” ilmiy jurnali, 2022.
13. World Bank Group. “Education for All”, 2020.
14. “Qishloq maktablaridagi zamonaviy muammo va yechimlar” xalqaro konferensiyasi materiallari, 2023.
15. Qodirova M. “Qishloq maktablaridagi infratuzilma muammolari”. Ilmiy izlanishlar to‘plami, 2023.

NODAVLAT TA’LIM MUASSASALARIDA BOSHLANG‘ICH SINFLAR O‘QUVCHILARI UCHUN CHET TILLARINI O‘QITISHNING INOVATSION USULLARI

Sanobar Nishonova

Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti

Namangan manzili Ingliz tili yo‘nalishi talabasi

Tel: +998 88 881 33 34

Annotatsiya: *Zamonaviy boshlang‘ich ta’limdagi eng asosiy fanlardan biri chet tili bo‘lib, maqolada chet tillarini nodavlat ta’lim muassasalarida boshlang‘ich sinflardan o‘rgatib borishning turli xil usullari va o‘yinlar orqali ularni o‘qitish haqida fikr yuritiladi. Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining qiziqishlari inobatga olingan holda dars o‘tish usullari ishlab chiqilgan hamda hayotga tadbiq etish uchun samarali usullar hisoblanadi.*

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Kalit soʻzlar: Zamonaviy dars texnologiyalari, Quvnoq topishmoqlar, Tezkor javob, Chigil yozdi, Pantomima, Hikoya zanjiri, Rolli oʻyinlar, Rasmlar soʻzlaganda, Kviz kartochkalari, Hangman, audio-vizual vositalar.

Аннотация. Одним из важнейших предметов в современном начальном образовании является иностранный язык, и в статье рассматриваются различные методики обучения иностранным языкам с начальных классов в негосударственных образовательных учреждениях и их преподавание через игры. В статье разрабатываются методики обучения, учитывающие интересы учащихся начальной школы, и рассматриваются их эффективные способы реализации.

Ключевые слова: Современные технологии обучения, Забавные загадки, Быстрый ответ, Чигиль написал, Пантомима, Сюжетная цепочка, Ролевые игры, Говорят картинки, Карточки для викторин, Виселица, аудиовизуальные пособия.

Abstract: One of the most important subjects in modern primary education is a foreign language, and the article discusses various methods of teaching foreign languages from primary grades in non-state educational institutions and their teaching through games. The article develops teaching methods taking into account the interests of primary school students and considers effective methods for implementation.

Key words: Modern teaching technologies, Funny riddles, Quick answer, Chigil wrote, Pantomime, Story chain, Role-playing games, Pictures speak, Quiz cards, Hangman, audio-visual aids.

KIRISH

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-maydagi “Oʻzbekiston Respublikasida xorijiy tillarni oʻrganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi PQ-5117-sonli qarori, 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga oʻqitish tizimi samaradorligini oshirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-239-sonli qarori chet tillarini, asosan, ingliz tilini oʻrganish umumiy oʻrta taʼlim maktablarining 1- sinflaridan oʻyin tarzidagi darslar va ogʻzaki nutq darslari shaklida, 2-sinfdan boshlab esa, alifbo, oʻqish va grammatikani oʻqitish bosqichma-bosqich boshlanadi. Qarorga koʻra, Chet tillarni oʻrganishni yanada rivojlantirish boʻyicha doimiy ishlaydigan Muvofiqlashtiruvchi kengash boshchiligida taʼlim sohasining barcha yoʻnalishlarida beqiyos koʻlamli ishlarni amalga oshirishga kirishildi. Masalan, 2013-2014 oʻquv yilidan eʼtiboran umumtaʼlim maktablarining birinchi sinflarida xorijiy tillarni oʻyin tarzidagi mashgʻulotlar va ogʻzaki nutq darslari shaklida uzluksiz oʻrgatish yoʻlga qoʻyildi.

Bolalarda til oʻrganishga boʻlgan tabiiy moyillik, ularda taqld qilish xususiyati kuchli ekanligini, kattalarga qaraganda ularda qabul qilish xususiyati kuchli boʻladi, shuni eʼtiborga olish kerakki 6-7 yoshli bolalar maʼlumotlar maʼnosini tushunib emas, balki ular oʻyinlar va hatti harakatlar orqali oʻrganishadi, shuning uchun ularga ingliz tilining gramatikasi shart emas.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

9 yoshgacha bo'lgan bolalarga o'yinlar orqali darslar o'tish kerak. Masalan, darsga jalb qilish va qiziqtirish uchun ularga o'zlari yodlagan so'zlar bo'yicha so'z o'yinlari, yana turli xil rasmlar orqali o'rgatish og'zaki savol-javoblar ularni ismi, familiyasi, yoshi bilan bog'liq savollar berish orqali ularni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Boshlang'ich ta'lim sifati bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Shu bois, maktablarning moddiy-texnika bazasini yaxshilash va malakali pedagog kadrlarni tayyorlash ustuvor yo'nalishlar bo'lib, ularni amalga oshirish ta'lim tizimining rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Maktab binolari qulay, xavfsiz va zamonaviy talablariga mos holda ta'minlanishi kerak. Shuningdek, darslik xonalaridagi o'rindiqlar, stol-sellafonlar va boshqa mebellar ergonomik va bolalarga qulay bo'lishi lozim.

Zamonaviy dars texnologiyalari – interaktiv doskalar, kompyuterlar, loyihorlar, audio-video tizimlar darslarni samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Ishlab chiqilayotgan dasturlar nazariy bilimlar bilan birga amaliyotga yo'naltirilgan bo'lib, real sinf vaziyatlarida qo'llanishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. O'qituvchilararo amaliy tajriba almashinuvi, hamkorlik sharoitlarida loyihalarni amalga oshirish hamda xalqaro va mahalliy ta'lim loyihalarida ishtirok etish orqali ularning didaktik mahorati va professional rivojlanishi ta'minlanadi.

Nodavlat ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tillarini o'qitishning sifatini oshirishda uchta muhim yo'nalishga e'tibor qaratish zarur: moddiy-texnika bazasini yaxshilash va pedagog kadrlarni tayyorlash hamda dars ish rejalarini o'quvchi yoshlarga mosligini ko'rib chiqish muhim ahamiyatga ega. Sinfxonalar va o'quv maydonchalari uchun interaktiv taxtalar, kompyuterlar, audio va video vositalari kabi zamonaviy texnika bilan ta'minlash orqali dars jarayonini yanada qiziqarli va samarali qilish mumkin.

“Quvnoq topishmoqlar” (Merry riddles) o'quvchilarga topishmoqlar o'rgatish. Ingliz tilini o'rgatishda muhim ahamiyatga ega, ular o'zlariga notanish bo'lgan so'zlarni o'rganadilar va o'ylab topishmoq javobini topadilar.

“Tezkor javob” (Quick answers) o'tilgan dars samaradorligini oshirishda yordam beradi.

“Chigil yozdi” (Warm-up exercises) o'quvchilarni darsga qiziqtirish uchun sinfda har xil o'yinlardan foydalanish.

“Pantomima” (Pantomime) bu usul juda qiyin mavzular tushuntirilishi kerak bo'lgan darsda yoki yozma mashqlar bajarilib, o'quvchilar charchagan paytda foydalanilsa bo'ladi.

“Hikoya zanjiri” (A chain story) usuli o'quvchilarning og'zaki nutqini oshirishda va xotirani mustahkamlashda yordam beradi.

“Rolli o'yinlar” (Acting characters) bu usul darsning barcha tiplarida qo'llanilishi mumkin.

“Rasmlar so'zlaganda” (When pictures speak) usuli ancha qulay bo'lib, ingliz tilini o'rgatishda, o'quvchilarning o'g'zaki nutqini rivojlantirishda yordam beradi, buning uchun mavzuga oid rasmlardan foydalanish lozim.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

“Kviz kartochkalari” (Quiz cards) o‘quvchilarning soniga qarab kartochkalar tarqatiladi va hamma o‘quvchilar bir vaqtda darsda ishtirok etish imkonini beradi bu esa vaqtni tejaydi.

“So‘z o‘rnini top” o‘yinida so‘zlarning o‘rni almashtirib qo‘yiladi hamda so‘zlarni o‘z o‘rniga to‘g‘ri qo‘yish orqali gap hosil qilinadi.

“To‘plam” o‘yini ma‘lum bir mavzu asosida o‘quvchilarning olgan bilimlarini mustahkamlash maqsadida o‘tkaziladi.

“Rasmi” o‘yin. O‘quvchilar Present Continuous tarkibini yaxshiroq o‘zlashtirishlari uchun rasmi o‘yinni qo‘llash mumkin. O‘quvchilarga hali ko‘rmagan rasmlaridagi personaj nima qilayotganini topish taklif etiladi. Masalan, P1: Is the girl sitting at the table? P 2 : No, she is not.

O‘quvchi o‘yinlarni ingliz tilida o‘ynasagina ingliz tiliga qiziqishiortadi, shu bilan birga ingliz tilini yanada chuqurroq o‘rganadi. Bolalar o‘quv jarayoniga o‘yinlar va qiziqarli tadbirlar jalb qilinganda yaxshiroq o‘rganadilar. **“Scrabble”** kabi oddiy stol o‘yinlari, **“Hangman”** kabi onlayn o‘yinlar yoki **“Wordpower”** kabi ilovalar bolaning ingliz tilini yaxshilash va eshitish usuli orqali unga imlo va talaffuzni o‘rgatish uchun ishlatilishi mumkin. Ushbu metodlar orqali ikkinchi tilni o‘rganish o‘sib kelayotgan yoshlar uchun yaxshi kelajak qurishga imkoniyat yaratadi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan tadqiqotlar va kuzatuvlar asosida aniqlanishicha, nodavlat ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishda innovatsion usullardan foydalanish boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining tilga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning nutqiy faoliyatini faollashtiradi va mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ayniqsa, interfaol metodlar (rol o‘ynash, o‘yinli mashg‘ulotlar, raqamli texnologiyalar yordamida ta‘lim), audio-vizual vositalar va onlayn platformalardan foydalanish orqali ta‘lim jarayonining samaradorligi sezilarli darajada oshgani kuzatildi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, individual yondashuv, multimedia vositalari bilan boyitilgan darslar va kommunikativ metodlar orqali til o‘rganish jarayoni osonroq va samaraliroq kechmoqda.

Nodavlat ta‘lim muassasalari innovatsion yondashuvlarni amaliyotga tatbiq qilishda nisbatan erkinroq va moslashuvchanroq hisoblanadi. Bu esa ularning dars jarayoniga zamonaviy uslublarni tezroq joriy etish imkonini beradi. Biroq, innovatsion usullardan to‘liq foydalanish uchun o‘qituvchilarning malakasi va pedagogik mahorati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Shu bois, doimiy ravishda o‘qituvchilar malakasini oshirish, ularni yangi texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash zarurdir.

Yana bir muhim jihat shuki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun chet tilini o‘rganish psixologik yondashuvni ham talab qiladi. O‘yin asosidagi metodlar, vizual materiallar va til muhitini yaratishga qaratilgan usullar o‘quvchilarda stresssiz, ijobiy muhitda ta‘lim olish imkonini beradi. Shu bilan birga, ota-onalar bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ularning farzandlari til o‘rganishiga faol jalb etilishi o‘quv jarayonini samaraliroq qilishi mumkin.

“BEHBUDIY IZDOSHLARI” ILMIY VA IJODIY ISHLAR TANLOVI

Umuman olganda, innovatsion usullar boshlang'ich sinflarda chet tillarini o'qitishda nafaqat ta'lim sifatini oshiradi, balki o'quvchilarning ijodiy fikrlashi, madaniy tafakkuri va global dunyoqarashini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

XULOSA

Nodavlat ta'lim muassasalarida boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun chet tillarini o'qitilishi majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi va ingliz tilini turli sinflar doirasida o'quvchilarni yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, ulardagi chet tilini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyojlarini to'liq qondirishga yordam beruvchi pedagogik innovatsion texnologiyalarga asoslangan zamonaviy dars ishlanmalar yordamida dars o'tish o'quvchilarda tilni o'rganish uchun yuqori samara beradi hamda ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi, barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchilar innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammalroq ishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 15-maydagi “O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-5117-sonli qarori,
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 27-iyundagi “Yoshlarni xorijiy tillarga o'qitish tizimi samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-239-sonli qarori
3. Xoshimov O'. Yoqubov I. Ingliz tili o'qitish metodikasi T.: Sharq, 2023, -B 75-77
4. Bekmurotov U. Ingliz tilini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish.//Toshkent; 2012
5. Erkinov S. Boshlang'ich sinflarda chet tili o'qitish metodikasi.//SamDCHTI; 2019
6. Carvalho, J. (2003). The effective language teacher. New Routes. 102p.
7. Horwitz, E. (1999). Cultural and situational influences on foreign language learners' beliefs about language learning: A review of Balli studies. 565- 566p. –

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI TIJORAT BANKLARI VA ULAR TOMONIDAN KO'RSATILAYOTGAN XIZMATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Murodova Dilnoza Choriyevna

Bank ishi kafedrasining DSc Toshkent davlat iqtisodiyot

Universiteti E-mail: dilnoz88.murodova@mail.ru

ORCID: 0000-0002-3613-9392

Telefon: +998909093214

Tursunova Farangiz Shokir qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Bank ishi fakulteti

Talabasi E-mail: tursunovafarangiz954@gmail.com Telefon: +998880065610